
Qirq nafarga yaqin ishsiz fuqarolarga subsidiya asosida mehnat qurollari topshirildi

Farg'ona shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan hokim yordamchilarining o'rganishlari davomida joriy yil boshidan o'zini-o'zi band qilishlari uchun ishsiz, ehtiyojmand oilalarning 358 nafariga asbob-uskuna olishlari uchun tavsiyalar berilgan.

Ayni kunlarda tavsiya berilgan dastlabki 38 nafar fuqarolarga belgilangan tartibda amaliy yordamlar ko'rsatilib, jihozlarni yetkazib berish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Fuqarolar yurtimizda doimiy ish bilan band bo'Imagan, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga berilayotgan e'tibor va yordam uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi. Ajratilgan mehnat qurollari va zamonaviy uskunalar doimiy daromadga ega bo'lishlarida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tishdi.

2023-10-19 08:40:51